

## Ark guruhi

### "Sarob"

Visit "[Sarob](#)" on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com)

Ko'zdan oqar yoshim,  
Egik mag'rur boshim.  
Armon o'rtağa botdi,  
Qani baxt quyoshim?

Mening birgina baxtim  
O'zing eding xolos,  
Shu baxtimdan ayirar  
Egningdagi oq libosini!

Endi bu yor-yorlar  
Mening bag'rini yular.  
Seni o'rinar gullar,  
Meni-chi, qayg'ular.

Armonga aylanar  
Biz qilgan orzular,  
Ayt, vaqtinchalikmidi  
Sendagi tuyg'ular?!

Endi bu yor-yorlar  
Mening bag'rini yular.  
Seni o'rinar gullar,  
Meni-chi, qayg'ular.

Sarobga aylanar  
Baxt tomon yo'llar,  
Yo vaqtinchalikmidi  
Sendagi tuyg'ular?

Ko'ziga to'lib nam,  
Yig'lar mening erkam,  
Balki, bu ayriliq  
Qiynaydi uni ham?

Boraman ortidan,

Uni to'xtatolmay,  
U esa ketadi  
Ortiga qaramay.

Endi bu yor-yorlar  
Mening bag'rim yular.  
Seni o'rargullar,  
Meni-chi, qayg'ular.

Sarobga aylanar  
Baxt tomon yo'llar,  
Yo vaqtinchalikmidi  
Sendagi tuyg'ular?

Borolmay sen tomon,  
Qalbmida g'alayon!  
Sensiz bu yuragim  
Yashashi ham gumon.

Sen esa yig'lama,  
Yoshlar to'kma dardli.  
Men uchun ham, jonim,  
Doim bo'lg'in baxtli.

Yuragim qon yig'lar,  
Qolib sensiz.  
Balki shundan uning  
Nigohlari g'amli.

Nahot endi yashayman  
Bir umr baxtsiz?  
Mayli, men uchun ham,  
Jonim, sen bo'lg'in baxtli.

Yolg'izlikdan yuragim  
Urmay qolsa o'zi,  
Muzlagan tanamni ham  
Ketsa ruhim tashlab,  
Yig'lama ortimdan,  
Izim izlama bo'zlab.  
Osmonlarda yashayman  
Sening baxting so'rab!

